


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2022- yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)

Namangan viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-iyun oylarida (*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm*) **2687,8** ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Namangan shahrida **3334,1** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **124,0** %) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Chust tumanida 2016,6 ming so'mni (75,0 %), Kosonsoy tumanida 2049,5 ming so'mni (76,2 %) Chortoq tumanida 2209,5 ming so'mni (82,2 %), tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2022- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, % da)




Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	2288,8	2687,8	117,4
Namangan sh	2790,3	3334,1	119,5
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	1986,6	2243,8	112,9
Kosonsoy	1872,9	2049,5	109,4
Namangan	2131,8	2595,6	121,8
Norin	2041,2	2165,7	106,1
Pop	2030,1	2366,7	116,6
To'raqo'rg'on	2443,7	2840,9	116,3
Uychi	2015,0	2311,2	114,7
Uchqo'rg'on	2148,3	2360,1	109,9
Chortoq	1824,6	2209,5	121,1
Chust	1787,3	2016,6	112,8
Yangiqo'rg'on	2129,4	2534,9	119,0


Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-iyun, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 554,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 117,3 % ga ko'paygan.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 347,5 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 97,3 % ga kamaygan.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 749,5 ming so'mni tashkil qildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 117,7 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 524,9 ming so'mni tashkil qildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 140,1 % ga kamaygan.

Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 371,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 124,3 % ga oshdi.



➤ **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 6 160,2 ming so'mni tashkil qildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 575,9 ming so'mni tashkil qildi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ga oshdi.




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 211,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 120,6 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari
sohasidagi o'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi miqdori
3 107,5 ming so'mga to'g'ri keldi va
2021-yilning mos davriga nisbatan
121,4 % ga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, % da.

(2022- yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Namangan viloyati bo'yicha 2022-yil yanvar-iyun oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati tashish va saqlash sohasida **140,1 %**, axborot va aloqa **124,3 %**, yashash va ovqatlanish sohasida **121,5 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida **120,6 %**, savdo sohasida **117,7 %**, sanoat sohasida **117,3 %**, ta'lim sohasida **114,0 %**, Moliya va sug'urta sohasida **104,3 %** kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar-iyun oylaridagi oylik nominal ish haqqi, ming so'mda



Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat ish haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2022- yil 20- maydagi PF-138-sonli farmoniga asosan 920,000 so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(69) 211-72-00